



## **TALABALARDA O‘QUV FANLARINI O‘ZLASHTIRISH DARAJASINI RIVOJLANTIRISHDA BILISH JARAYONLARINING O‘RNI**

**Sherimbetova Zamira Shalabaeva**

*Nukus innovatsion instituti “pedagogika va psixologiya” kafedrası professori v.v.b., ps.f.n*  
[zamirasherimbetova0975@gmail.com](mailto:zamirasherimbetova0975@gmail.com)

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.15078971>

**Annotatsiya.** *Maqolada talabalarning o‘quv fanlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishida bilish jarayonlarining roli, bilish jarayonlari, ya’ni sezgi, idrok, xotira, tafakkur va diqqat kabi psixik funksiyalar, sezgi va idrok bilish jarayonlarining boshlang‘ich bosqichlari haqida ma’lumotlar berilgan.*

*Talabalarda o‘quv fanlarini o‘zlashtirish darajasini rivojlantirish pedagogik va psixologik tamoyillari bilim darajasi, qobiliyatlari va ta’limga bo‘lgan ehtiyojlariga moslashtirilgan ta’lim jarayonini tashkil etish bo‘yicha tushunchalar keltirib o‘tgan.*

**Kalit so‘zlar:** *o‘zlashtirish, bilish jarayonlari, diqqat, xotira, tafakkur, nutq, kognitiv jarayon, idrok, differentsial ta’lim, refleksivlik tamoyil, integrativ yondashuv.*

Talabalarning o‘quv fanlarini muvaffaqiyatli o‘zlashtirishida bilish jarayonlarining roli katta ahamiyatga ega. Bilish jarayonlari, ya’ni sezgi, idrok, xotira, tafakkur va diqqat kabi psixik funksiyalar ta’lim jarayonining asosiy poydevorini tashkil qiladi. Ushbu jarayonlarning samarali ishlashi talabalarning bilimlarni chuqur va puxta o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Sezgi va idrok bilish jarayonlarining boshlang‘ich bosqichlari hisoblanadi. Talabalar o‘quv materiallari bilan tanishish jarayonida sezgi organlari orqali ma’lumotlarni qabul qiladi. Idrok esa ushbu ma’lumotlarni qayta ishlash va ularni tushunishga yordam beradi. Talabaning idroki qanchalik rivojlangan bo‘lsa, u o‘quv materiallarini shunchalik aniq va to‘g‘ri tushunib oladi, bu esa bilimlarni muvaffaqiyatli o‘zlashtirishning dastlabki bosqichini ta’minlaydi. Xotira o‘quv materiallarini uzoq muddatli saqlash va ularni kerakli paytda eslab qolish uchun muhim ahamiyatga ega. Talabalar tomonidan yangi bilimlarni o‘zlashtirish, avvalgi bilimlarni eslab qolish va ularni bir-biri bilan bog‘lash jarayonida xotiraning faoliyati hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Xotira qanchalik kuchli bo‘lsa, talabaning o‘quv fanlarini o‘zlashtirish darajasi ham shunchalik yuqori bo‘ladi. [1;140]

Tafakkur bilish jarayonlarining markaziy elementi hisoblanadi. Tafakkur yordamida talabalar olingan bilimlarni tahlil qiladi, umumlashtiradi va ularni qo‘llash usullarini o‘rganadi. Mantiqiy fikrlash esa talabaning o‘quv materiallarini strukturaviy va tizimli ravishda o‘zlashtirishini ta’minlaydi. Tafakkur va mantiqiy fikrlashning rivojlanishi talabalarning muammolarni hal qilish qobiliyatini oshiradi va ularni ilmiy tafakkurga tayyorlaydi. [4;198]. Diqqat o‘quv jarayonida talabaning



faolligini va uning ta'lim materiallariga qaratilgan e'tiborini saqlab turish uchun muhimdir. Diqqatning barqarorligi va kuchliligi talabaning o'quv materiallarini muvaffaqiyatli o'zlashtirishida hal qiluvchi omil hisoblanadi. Diqqatni to'g'ri taqsimlash va boshqarish talabalarning bilimlarni samarali va tez o'zlashtirishiga yordam beradi. Tasavvur bilish jarayonlarining kreativ komponenti bo'lib, o'quv materiallarini qabul qilishda yangi g'oyalarni yaratish va o'rganilayotgan mavzularni kengaytirish imkonini beradi. Ijodkorlik esa olingan bilimlarni yangilik yaratishda qo'llashga yordam beradi. Shuning uchun talabalarda bilish jarayonlarini rivojlantirish, ularga mos ta'lim metodlarini qo'llash va sharoit yaratish o'quv fanlarini chuqur va puxta o'zlashtirish uchun muhim ahamiyatga ega.

Talabalarda o'quv fanlarini o'zlashtirish darajasini rivojlantirish pedagogik va psixologik tamoyillarni uyg'unlashtirishni talab qiluvchi jarayon hisoblanadi. Ushbu tamoyillar ta'lim jarayonini samarali tashkil etishda asosiy yo'nalishlarni belgilab beradi va talabalarning bilim olishda muvaffaqiyatga erishishlarini ta'minlaydi. Differensial ta'lim tamoyili talabalarning individual xususiyatlari, bilim darajasi, qobiliyatlari va ta'limga bo'lgan ehtiyojlariga moslashtirilgan ta'lim jarayonini tashkil etishni nazarda tutadi. Bu tamoyil orqali talabalarga ularning rivojlanish darajasiga mos ravishda maxsus topshiriqlar va mashg'ulotlar beriladi. Differensial ta'lim talabalarni qobiliyatlariga ko'ra rivojlantirish imkonini yaratadi va har bir talabaning bilim olish jarayonidagi muvaffaqiyatini oshiradi. [3;195]

Refleksivlik tamoyili ta'lim jarayonida talabaning o'z ta'lim faoliyatini tahlil qilish va baholash qobiliyatini rivojlantirishni o'z ichiga oladi. Bu tamoyil talabaning o'z faoliyati ustidan nazoratni amalga oshirishga, o'z bilimlarini qanday oshirish kerakligini aniqlashga va kelajakdagi ta'lim jarayonini rejalashtirishga yordam beradi. Refleksivlik talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi uchun muhim qadamdir.

Integrativ yondashuv tamoyili o'quv fanlari o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish va o'zaro bog'liqlikni ta'minlashga qaratilgan. Bu tamoyil talabalarning turli fanlar bo'yicha olingan bilimlarini yagona tizim sifatida o'zlashtirishiga yordam beradi va ularning bilim doiralarini kengaytiradi. Integrativ yondashuv talabaning bilimlarini hayotda amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Zamonaviy ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalarni qo'llash tamoyili ta'lim jarayonini samarali tashkil etish uchun dolzarb hisoblanadi. Masofaviy ta'lim, elektron resurslar, o'quv platformalari va interaktiv texnologiyalardan foydalanish talabalar bilimini oshirishga, ularga qo'shimcha manbalar bilan ishlash imkoniyatini yaratishga xizmat qiladi. Innovatsion texnologiyalar ta'lim jarayonini yangi



bosqichga olib chiqadi va talabaning o‘zlashtirish darajasini sezilarli darajada oshiradi.

Kooperativ o‘quv tamoyili talabalarning birgalikda ishlash, guruh bo‘lib muammolarni hal qilish va bilimlarni o‘zaro baham ko‘rish orqali o‘zlashtirish darajasini oshirishni o‘z ichiga oladi. Bu tamoyil orqali talabalar bir-birlaridan o‘rganadi, fikrlash qobiliyatlari rivojlanadi va o‘z bilimlarini mustahkamlaydi. Kooperativ o‘quv jarayoni talabalarda ijtimoiy ko‘nikmalarni ham shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. [2;170]

Odatda diqqatni jalb qiluvchi uch guruh omillarga ajratish mumkin.

Birinchi guruh – qo‘zg‘atuvchi xarakteri bilan bog‘liq. Bunda qo‘zg‘atuvchi kuchli, yangi, antiqa asosida yo‘nalish beruvchi refleks («Bu nima ekan») yotishi lozim.

Ikkinchi guruh – qo‘zg‘atuvchi, hamda inson ehtiyojini o‘zaro munosabati olinadi (bunda sabablar tashqi omilga emas, balki subyekt ehtiyoji, qiziqishlariga bog‘liq).

Uchinchi guruh – diqqatni jalb qilish bilan bog‘liq sabablar bilan xarakterlanadi. Bunda diqqat inson faoliyatiga, maqsadga qaratiladi. Shunday qilib, diqqat faoliyat tizimini tashkil qilib, uning kechishi va jarayonini nazorat qiladi.

Demak ta‘limiy samaradorlik uchun ta‘lim oluvchilarda diqqat va idrok sifatlarining uyg‘un shakllangan bo‘lishi katta ahamiyatga ega. Ta‘lim oluvchilarda diqqat sifatlarining yaxshi rivojlanganligi ular idrokining taraqqiyot darajasiga bog‘liq. Pedagoglar fan asoslarini talabalarga tushuntirishda ularning individual xususiyatlari, diqqat sifatleri va tushunish darajasini hisobga olgan holda dars jarayonini tashkil qilishi lozim. Xotira turlari va xususiyatlarining jarayon sifatida unumli ishlashi ko‘p jihatdan diqqatning turlari va xususiyatlariga bog‘liqdir. Diqqat boshqa psixik jarayonlar singari xotiraning ham ishlashida bevosita muhim rol o‘ynaydi. Chunki esda olib qolish, esda saqlash va esga tushirish jarayonida biz dastavval esga olinishi yoki esga tushirilishi lozim bo‘lgan ma‘lumotga fikran diqqatimizni qaratamiz, so‘ng ma‘lumotni xotiramizda tiklaymiz.

Xotirasidan noliydigan ko‘plab insonlar aslida muammo xotiradasida emas diqqatida ekanligini har doim ham anglayvermaydi. Misol uchun, har safar uyidan ma‘lum masofada uzoqlashgan kishining uy eshigini qulflaganini eslolmay qolishi yoki dazmolni tokdan uzganligini, gaz plitasini o‘chirganini aniq eslolmay qolishi xotira bilan bog‘liq muammoday ko‘rinadi. Aslida esa xuddi shu vazifalarni bajarayotgan paytda kishining diqqati boshqa narsalar bilan band bo‘lganligi bois eslash jarayonida muammolar yuzaga keladi. [3;180]



Masalan, ilmiy konferensiyada ma’ruza qilayotgan professorning mavzu mazmuniga oid hikoyani aytib berayotganida uni diqqat bilan tinglayotgan talabalarda professor va u aytib bergan hikoya o’rtasida yondoshlik assotsiatsiyasi hosil bo’ladi. Keyinchalik talabalar hikoyani qayta eshitganida uni aytib bergan professorning obrazini ko’z oldiga keltirishadi yoki professorni ko’rishganida esa u aytib bergan hikoyani esga olishadi.

Xulosa qilib aytganda xotiraning jarayon sifatida bir butun ishlashi diqqatning bu jarayondagi ishtirokiga ko’p jihatdan bog’liq. Shu sabab ko’plab insonlar ma’lumotlarni eslab qolishda qiyinchiliklarga duch kelganida yoki kerakli ma’lumotni eslashda qiynalib qolganida asosiy muammoni xotiradan deb bilishadi. Aslida esa, bu holatda asosiy muammo xotirada emas vazifani bajarayotgan kishilarning diqqatida ro’y berayotgan chalg’ish, tarqoqlik, be’qarorlik, yoki kuchsizlik natijasidan kelib chiqadi.

Tafakkur operatsiyalarida diqqat muhim rol o’ynaydi. Taqqoslash operatsiyasi fikr qilish jarayoni bo’lib, bu jarayon idrok qilinayotgan narsalarning o’xshashligi yoki tafovutini aniqlash lozim bo’lganda, yoxud sezgilarda va idrokda bevosita aks etmagan o’xshashlik va tafovutni topish lozim bo’lgan hollarda diqqatni muammoga yo’naltirish orqali voqe bo’ladi. Amaliy taqqoslash bir narsani ikkinchi bir narsaga solishtirib ko’rayotganda, masalan, bir kitobni ikkinchi kitobga, bir darsni ikkinchi bir darsga solishtirib ko’rilayotganda sodir bo’ladi.[1;35-39]

Talabaning o’zini o’zi nazorat qilish qobiliyati bilish jarayonlarining samaradorligini oshiradi. O’zini o’zi nazorat qilish orqali talaba o’zining o’rganish strategiyalarini boshqarishi va moslashtirishi mumkin, bu esa o’quv materialini chuqurroq o’zlashtirishga yordam beradi. A.Bandura tomonidan ishlab chiqilgan ijtimoiy-kognitiv nazariya talabalarning o’quv faoliyatidagi motivatsiyasi va o’zlashtirish darajasi o’zaro ta’sirda bo’lishini ta’kidlaydi. Ushbu nazariyaga ko’ra, talaba o’z bilish jarayonlarini samarali boshqarishi uchun ijtimoiy modeldan va o’ziga ishonchdan foydalanishi kerak.

Bizning xulosamizcha, tadqiqotlar qisqa muddatli va uzoq muddatli xotiraning rivojlanishi o’quv fanlarini o’zlashtirish jarayonida muhim ekanini ta’kidlamogda. Xotira mustahkamlanishini kuchaytirish usullari, masalan, takrorlash intervali va faol qayta ishlash texnikalari yordamida talabaning o’rganish imkoniyatlarini kengaytirish mumkin. Shuningdek, ijodiy fikrlash va kognitiv moslashuvchanlikning o’quv materiallarini samarali o’zlashtirishda qanday o’rin tutishini o’rganmogda. Ijodiy fikrlash talabalarga yangi g’oyalar va ko’rinishlarni o’rganishda yordam beradi, bu esa o’zlashtirish darajasini oshiradi.



## Adabiyotlar

1. Абульханова - Славская К.А. Социальное мышление личности: проблемы и стратегии мышления // Психологический журнал. - 1994. № 4. - С. 35–39;
2. Андреева Г.М. Психология социального познания. - М.: Аспект-Пресс, 2007 - 304 с.
3. Karimova V.M., Sunnatova R.I., Tojiboyeva R.N. Mustaqil fikrlash. -T.: Sharq, 2000.-78 B.
4. Nishonova Z.T. Mustaqil ijodiy fikrlashni shakllantirishning psixologik asoslari: Psix.f.dok.dis. - T., 2005. - 391 b.